

SOKRATNING FALSAFIY MEROSIDA ERKINLIK FENOMENIGA BERGAN URG'USI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15667622>

Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi
Alfraganus universiteti dotsent v.b., PhD
ORCID: 0000-0002-1857-7006

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi yunon falsafasining yirik vakili Sokratning erkinlik haqidagi qarashlari o'rganiladi. Maqolada Sokratning erkinlikni nafaqat siyosiy va ijtimoiy mustaqillik sifatida, balki axloqiy va ma'naviy jihatdan qanday talqin etgani tahlil qilinadi. Sokratning fikricha, haqiqiy erkinlik insonning ichki erkinligi, ya'ni o'zining ongli qarorlarini qabul qilish va axloqiy qadriyatlar asosida yashashda namoyon bo'ladi. Uning erkinlik haqidagi tushunchalari, asosan, shaxsiy ong va axloqiy burchni ustun qo'yish orqali jamiyatda barqarorlikka erishishni ta'minlaydi. Sokratning erkinlikni bilish va o'zini o'rganish jarayoni sifatida ko'rsatgan yondashuvi, uning falsafiy diyaloglari orqali ham namoyon bo'ladi. Bu maqolada Sokratning erkinlik haqidagi fikrlarini o'rganish, uning qadriyatlar tizimiga va insonning jamiyatdagi o'rniga bo'lgan yondashuvini tushunishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: erkinlik, axloqiy erkinlik, bilish, ichki erkinlik, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy burch, mustaqillik, shaxsiy erkinlik, tafakkur.

Abstract. This article examines the views of Socrates, a prominent representative of ancient Greek philosophy, on freedom. The article analyzes how Socrates interpreted freedom not only as political and social independence. But also as moral and spiritual. Socrates believed that true freedom is manifested in a person's inner freedom, that is, in making their own conscious decisions and living on the basis of moral values. His ideas about freedom ensure the achievement of stability in society, mainly due to the predominance of personal consciousness and moral duty. Socrates' approach, presented as a process of cognition and study of freedom, is also evident in his philosophical dialogues. The study of Socrates' thoughts on freedom in this article allows us to understand his approach to the value system and the place of man in society.

Keywords: freedom, moral freedom, cognition, inner freedom, spiritual values, moral duty, independence, personal freedom, thinking.

Kirish

Sokrat qadimgi Yunonistonning eng katta falsafiy shaxslaridan biri bo'lib, uning falsafasi ko'plab ijtimoiy va axloqiy masalalar bilan bog'liqdir. Sokratning asosiy maqsadi insonning haqiqiy baxti va ichki erkinligini ta'minlash, shu bilan birga, jamiyatda axloqiy va adolatli hayot kechirishni targ'ib qilish edi. Uning

erkinlik haqidagi qarashlari nafaqat siyosiy va ijtimoiy mustaqillikni, balki insonning ichki, axloqiy erkinligini ham o'z ichiga oladi. Sokratning fikricha, haqiqiy erkinlik insonning o'zligini tanib bilish, o'z ichki dunyosini anglash va axloqiy burchini bajarish orqali erishiladi.

Sokratning falsafasida erkinlik, o'ziga xos tarzda, faqat tashqi cheklovlardan ozod bo'lish bilan bog'liq emas, balki insonning o'z axloqiy qarorlarini ongli ravishda qabul qilishiga ham bog'liqdir. Erkinlik, shu tariqa, nafaqat siyosiy erkinlik, balki axloqiy, ma'naviy va ruhiy ozodlikni anglatadi. Sokratning diyaloglarida va metodologiyasida bu qarashlar aniq va keng yoritilgan bo'lib, uning ijtimoiy va axloqiy masalalarga bo'lgan yondashuvi haqiqiy erkinlikning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan me'yorlarni ko'rsatib beradi.

Ushbu maqolada, Sokratning erkinlik haqidagi fikrlari, uning ta'limoti orqali, ayniqsa, axloqiy erkinlikni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, uning insoniy ong, bilish va axloqiy burchni hurmat qilish orqali erkinlikni qanday talqin etgani o'rganiladi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi

Yunon mumtoz falsafasining yirik namoyandasi Sokrat ijodi falsafiy, ijtimoiy, tarixiy adabiyotlarda, jumladan, falsafa tarixida ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'ziga xos uslubda, o'z zamonasiga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan. Bunga ko'plab misollarni keltirishimiz va ularning durdona fikrlaridan bugungi kun talabiga to'liq javob bera oladigan yechimlarni ham topishimiz mumkin. Shuningdek, Sokratning ijodini har tomonlama yorituvchi R.S.Brambo [1], F.X.Kessidi [4], K.Proxorov [7], L.M.Gluskina [2], V.S.Nersyesyans [6], O.V.Gutorovich [3], M.Frede [13], M.Polenz [14] va boshqa tadqiqotchilar ishlarini, risolalarini, maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Sofistlar asos solgan erkinlikning antropologik tomonlariga Sokrat tub burilish yasagan. U undan ilgari ko'rib chiqilishi an'anaviy tus olgan naturfalsafiy qarashlarni chetga surib, falsafa negiziga inson masalasini biriktirishga, u bilan barcha falsafiy muammolarni bog'lashga uringan. Jumladan, uning falsafasida inson mustaqil mohiyat sifatida qarala boshlandi. Taqdir inson ustidan hukmronlik qilishni, uning qilmishlariga javob berishni to'xtatadi.

Inson tabiatidan kelib chiqib, umrini lazzat olishga, ehtiyojlarini qondirishga intilishga sarflashini hisobga olgan holda, uni axloqiy chegaralarini belgilash zaruriyatini uyg'otgan. Erkin hayot tarzini lazzatga intilish orqali tushunilishini qoralagan Ksenofont erkinlikni Sokrat dunyoqarashi bo'yicha anglash eng a'lo ish, degan qarashi bilan uning ta'limotini yoqlagan. Erkinlikni axloqiy tushunishda eng a'lo sanalgan narsalar borasidagi bilimlar jamlangan. Insonlar aynan shu yaxshi narsalar tanlovini axloqiy tarzda amalga oshirishi haqidagi taassurotlarni yaratgan.

Shu asnoda tanlovga axloqiy tus berish an'ana shakliga kiradi. Sokrat ma'rifatparvar ta'limotlari orqali yaxshilik, erkinlik, adolat, haqiqat kategoriyalarini ochib berishga harakat qilgan. Buning misolini faylasuf barcha yaxshilikni izlashida, biroq hamma ham uni nimadan tashkil topganini bilavermasligi ko'rinishida tasvirlab bergan. Insonni eng tuban, past, quyi ehtiros va istaklardan ozod qiluvchi, ezgulikka yetaklovchi aql va tafakkur har bir individga zarurligini alohida ta'kidlagan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, erkinlik haqidagi g'oyalar sofistlar va Sokrat tomonidan amalga oshirilgan antropologik burilish doirasida o'zgaradi. Sokrat tabiiy-falsafiy muammolarga unchalik qiziqish bildirmagan, balki inson mohiyatan kimligini tushunishga harakat qilgan. Davri uchun xos bo'lgan tabiatni bilish bo'yicha fikr yuritish o'rniga qiziqishini inson bilimi bilan bog'ladi. Uning falsafasida taqdir inson ustidan hukmronlik qilishni, uning xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lishni to'xtatgan, chunki inson mustaqil shaxs sifatida ko'rila boshlangan [3].

Sokrat ijodida «erkin inson» tushunchasi ham keltiriladi. Uning nuqtai nazari bo'yicha tashqi erkinlik polis qonunlariga rioya qilish ko'rinishida aks etsa, erkinlikning asl mohiyati ichki olamda ochilishini ta'kidlagan. Aslida, mutafakkir ichki erkinlik haqida gapirganligini anglash qiyin emas. Bunday erkinlik mavjud bo'lishi uchun har qanday vaziyatda va har qanday sharoitda imkoniyat yaratilishi mumkin. Erkin bo'lish indviddan to'siqlarsiz o'z-o'zini anglash, jismoniy instinktlarini nazorat qilish, o'z-o'zini qo'lga olishni talab qiladi. Bundan tashqari, uning namoyon bo'lishi insonning intellektual qobiliyati orqali amalga oshadi, bu unga atrofdagi dunyoni tushunishga, bilim sohasini kashf etishga imkon beradi [7]. Sokrat uchun insonning erkin mohiyati axloqiy xatti-harakatlar va aql bilan boyitiladi [3].

Sokrat maktablari safidan joy oluvchi kiniklar maktabi o'z rahnamolari ta'limotidan faqatgina avtarkiyaga aloqador fikrlarni olib, odamlarning barcha turdagi ehtiyojlaridan keskin voz kechish yo'nalishida davom ettirib, rivojlantirdilar. Ayniqsa, buning yaqqol misoli Diogen Sinopskiy so'zlarida uchraydi. U inson o'zining ichki erkinligini shakllantirmoqchi bo'lsa, unda u tazyiqlar, ya'ni tashqi hamda tarkibiga ehtiyojlar, ehtiroslar kiruvchi ichki ko'rinishdagi majburlovlar tizginidan to'laonli ravishda mustaqillikni kuchaytirish yo'lini tutishi kerak. Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, qadimgi yunon falsafasida erkinlik haqidagi tasavvurlar taqdir, qismat yoki peshona bitigi g'oyalari bilan o'zaro aloqada bo'lgan.

Erkinlik fenomenining evolyutsiyasi davomida uning modifikasiyaga uchrab borayotganini sezish mumkin. Mana bu yuqoridagi bosqichda erkinlik siyosiy qarashlar qurshovidan chiqariladi. Natijada ijtimoiy tengsizlikka moslashuvchi ma'nosi yo'qoladi. Aniqrog'i, erkinlik tashqi holatdan ichki holatga ko'chib, inson kelib chiqishidan qat'i nazar, uning ichki kechinmalari bilan uyg'unlashadi. Uning mavqei, jamiyatdagi o'rni muhim ahamiyat kasb etmaydi. Erkinlik har bir insonning ichki, botiniy olamiga tegishli xususiyat sifatida ko'riladi. Zamonamizda

ham erkinlik ikki tomonlama o'rganilishini kuzatishimiz mumkin. Hozirgi davr faylasuflari asosiy e'tiborlarini insonning ichki erkinligini anglashga intilish masalasiga qaratganlar.

Sokrat ta'limotining ruhiyatidan kelib chiqib, umumbashariy axloqiy qonun talablariga mos keladigan harakat uslubini tanlash odamlarni o'z taqdirining yaratuvchisiga aylantiradi. Biroq, faylasuf, e'tiqod yuzasidan, Ksenofontning so'zlariga ko'ra, «mabudlarning irodasini fol ochish orqali bilib olishga» harakat qilgan. Shu bilan birga, Ksenofont Sokrat folbinlarga murojaat qilish va folbinlardan (Oracle) faqat ishning natijasi noma'lum bo'lgan hollarda so'rash zarur deb hisoblaganligini ochiq aytgan [4].

Ksenofontning axborotlarida Sokratning odamning o'ziga bog'liq bo'lgan narsani va unga bog'liq bo'lmagan narsani farqlash zarurligi haqidagi fikri e'tiborni tortadi. Ushbu fikr insonning erkinligi, shu bilan birga erkin emasligi chegaralari, harakat uslubini to'g'ri tanlash imkoniyati haqida savol tug'diradi. Ksenofont tomonidan taqdim etilgan Sokratning so'zlariga ko'ra, ba'zi hollarda harakat uslubini tanlash insonning o'ziga, uning bilimiga, kuchiga va qobiliyatiga, boshqalarida esa — insonga bo'ysunmaydigan mabudlarga bog'liq. Inson faqat o'zida bor narsani bo'ysundira oladi. Shunday qilib, inson faqat o'zini, kuchini va qobiliyatini biladigan darajada erkindir, u olgan bilim va tajriba asosida to'g'ri tanlov qila oladi. Va agar biz axloqiy xatti-harakatlar haqida gapiradigan bo'lsak, unda oqilona tanlov «fazilat - bu bilim» degan ma'noni anglatadi [4].

Erkinlik haqida Sokrat bir necha xil fikrlar aytsa ham, uning ruhiyatida ratsional yondashuv yotishi bilinadi. Ya'ni inson erkinlikni aqli bilan anglagan holda jamiyatdagi axloqiy tartib qoidaga rioya etishga chorlaydi. Erkinlikni istaklarni xohlagancha bajarish, u orqali hoyotdan lazzat topish kerak degan fikrlarni rad etadi va qoralaydi. O'zining suhbatdoshlari bilan ham bu masalada qattiq tortishganini yuqoridagi paragrafdan anglash mumkin. Demak, bunday yondashuvni Ibn Xaldun qarashlari bilan solishtirish bir muncha qiyin kechadi. Chunki sharq faylasufi o'zining falsafasida erkinlikka yetarlicha e'tibor ajratmagan. Erkinlik haqidagi g'oyalarini esa uning ijtimoiy iqtisodiy ruhda yozilgan asarlaridan bilib olishga harakat qilish mumkin. Agar shu qisqa parcha fikrlarni yaxlit manzaraga aylantiradigan bo'linsa, u yerdan Sokratni fikriga yaqinroq qarashni ajratib olish imkoni tug'iladi. Bunga misol tariqasida inson erkinligini aql mahsuloti sifatida baholashi keltiriladi.

Sokrat erkinlikka ega bo'lish o'zida nimalarni aks ettirishi haqidagi umumiy qarashlarni namoyon etsa, Ibn Xaldunda unga miqdor jihatdan kimlar ko'proq ega bo'lishi mumkinligi haqida so'z boradi. Bu ikki buyuk faylasuflar erkinlikni jamiyatda tenglik va notenglik ko'rinishida ham ko'rib chiqqanlar. Birinchi navbatda Sokratni jamiyatdagi erkinlik ko'rinishi qanday bo'lishi kerakligi haqidagi qarashlarini yoritish o'rinli bo'ladi.

Davlat tuzilmasidagi tartib saqlanishi hamda fuqarolar qonunlarga so'zsiz bo'ysunishi haqida Sokrat ko'p bor ta'kidlaganining zaminida erkinlikni anglangan ko'rinishi yashiringani yuqoridagi paragraflarda ochib berildi. Jamiyat boshqaruv

tuzumida Sokratning qarashlari o'ziga xoslikni namoyon etadi. U hamma qonunga itoat etishi, shuningdek aristokratik boshqaruv haqidagi fikrlari demokratiya belgilariga qarshi chiqmagan. Ksenofont guvohlik berishicha, Sokrat aristokratiyani «mansabdor shaxslar qonunlarni ijro etuvchi shaxslar orasidan tanlanadi»gan davlat tuzumi, deya tariflagan. U uchun muhim aspekt bu qonunlarga rioya etish bo'lganligi ayon, lekin qonun atamasini u qanday qabul qilganligi insonda qiziqish uyg'otadi. Qonun Sokrat uchun «fuqarolar umumiy kelishuv asosida nima qilish va nimadan voz kechish kerakligini belgilab yozgan nizomdir». Shu o'rinda mutafakkir, tiraniya tuzumini butunlay qoralaydi. Uni qonunchilik mavjud bo'lmagan, adolatsizlik hukum suradigan, xalq irodasiga qarshi va qonunga emas, balki hukumdor o'zboshimchaligiga tayanadigan boshqaruv turi sifatida baholaydi. Bu yerda erkinlikni suiste'mol qilish kuzatiladi.

Sokrat uchun ma'qul tuzum bu me'yorga tushurilgan demokratiya bo'lgan. Ayniqsa, u Perikl hukumronlik davrini eng yaxshi davr sifatida tariflagan. Uni qonunni hurmat qiluvchi fuqaro va boshqaruv ko'nikmasiga ega hukumdor deb hisoblagan. Periklni o'zi ham aynan me'yordagi demokratiyani yoqlagan holda, erkinlikni haddan tashqari ortiqcha o'zboshimchalikni qoralagan. Sokrat Perikldan keyingi boshqaruvchilarda bu bilim va ko'nikmalar yetishmasligini guvohi bo'lgan.

Ko'pchilik Sokratni demokratiyaga qarshi shaxs sifatida qabul qilganining sababi uning qur'a tashlash orqali saylov amalga oshirishni rad etgani bo'lgan. O'sha davrda mansabdor shaxslarning birlari xalq yeg'ini paytida saylash orqali, boshqalari esa qur'a tashlash orqali tayinlanganlar. Mansabda o'tirish bir yillik muddatda bo'lib, vakolat tugashi bilan qilgan ishlari bo'yicha hisobot topshirganlar. Aynan qur'a bilan lavozimlarga tayinlash bu yunonlarda ma'budlarni irodasini qatnashishini nazarda tutgan. Shu orqali polisning har bir erkak fuqarosi bu jarayonda qatnashib chiqqan. Demokratiya tarafdorlari aynan shu usulni eng adolatli usul, saylov orqali mansab berish esa oligarxiya belgisi sifatida qabul qilganlar. Lekin Sokrat aynan saylash orqali lavozim egallashni juda to'g'ri va demokratiyaga xos usul sifatida ta'kidlagan.

Sokrat qullik mavzusini faqat axloqiy jihat bilan bog'lagan. Bu turdagi fikri bilan o'z zamonasining aynan shu atamaga siyosiy, huquqiy yoki irqiy qarashlaridan tubdan farq qilgan. Ksenafontni xabar berishicha, mutafakkir qullar deb aynan go'zallik, ezgulik, adolatlilikni bilmaydigan insonlarni hisoblagan. Aynan qullik tabiatiga tiyilmagan va umuman olaganda o'z past quyi instinktlari ustidan hukumronlik qila olish qobiliyatidan mahrumlik kabilar xosligini hamda o'zini qo'lga ololmaydiganlar esa eng yomon qullik darajasida bo'lishlarini ta'kidlagan.

Sokrat erkinlik chegaralarini qonunni buzib o'zini istaklarini bajarishda deb hisoblamagan. Shu boisdan uning erkinlik tushunchasi aynan qonunlarni anglab ularni bajarish, chegaralarini buzmaslik, fuqarolik majburiyatlarini bajarish asosida harakatlanish bilan ifodalanadi.

An'anaviy polis patriotizmi tarafadori sifatida qolgan Sokrat turli xil zamonaviy kosmopolitik oqimlarga nisbatan tanqidiy yondoshib, fuqarolarni davlat

oldidagi burch va majburiyatlarini his qilib, bajarishni talab etgan. Bu yerda aynan aqlan va adolatli tartibga solingan polis sharoitidagi erkin va teng fuqarolarni qonuniy majburiyatlari haqida gap ketgan. Faqat shu yo'l orqaligina nafaqat inson, balki davlat uchun ham go'zal va ulug' boylik, yutuq sanalgan erkinlikni qo'lga kiritish mumkin [6].

Erkin holatda faoliyat yuritish, izohlaydi Sokrat, eng yaxshi holatdagi aqlan ish ko'rish bilan teng. Bunga esa o'zini tiya olmaslik katta to'siq vazifasini o'taydi. Bu esa insonni tana, jism hirslari va istaklari boshqarayotgani bilan ifodalanadi. O'zini tiya olmaslik odamlarni ezgulikdan yiroqlashtirib, ularni eng quyi tobelik, qullikka, erksizlikka olib boradi. Shuningdek, u insonni o'z majburiyatlari hamda butun bir polis hayotining qonuniy tartibi haqidagi g'amxo'rlikni falaj qiladi [6].

Yuqoridagi fikrlardan ilg'ash mumkinki inson erkinligi bu jamiyatdagi munosabatlar bilan bo'liq. Unga ega inson axloqiy jihatdan o'z mas'uliyatlarini davlat oldida bajarishi lozim. Endi shu o'rinda Sokratni Ibn Xaldunning erk masalasi bilan bog'liq bo'lgan qarashlarini solishtirganda ularning fikrlarini ayrim joylarda o'xshashligi bilan ajratib olish mumkin. O'xshash tomonlariga erkinlik inson aqli bilan anglanadigan va faoliyatda namoyon bo'ladigan fenomen sifatidaligi misol bo'lsa, Ibn Xaldun jamiyatdagi erkinlik ta'sir doirasi keng va kuchli bo'lgan insonlarda mavjudligi to'g'risidagi fikrlari bilan ajaralib turadi. Jamiyatda ta'siri keng bo'lgan shaxslar ta'sir doirasi kichik yoki umuman yo'q bo'lgan insonlarni boshqaradi, ularni o'z irodasiga bo'ysundiradi va aynan shu ta'sir doirasi ularni faoliyatlarida erkinlik bilan ta'minlaydi.



1-chizma. Sokrat qarashlarida erkinlik

Xulosa

Shunday ekan, jamiyatda insonlar erkinlikni qonun qoidalarga anglab bo'ysungan holatda qo'lga kiritishlari mumkin. Davlatdagi demokratik munosabatlarda ham shaxslar erkinlikni jamiyatda o'rnatilgan tartiblarni buzmagani

holda qo'lg'a kiritilishi kerakligi kabi xulosa yuzaga keladi. Qanday boshqaruv tizimi bo'lmasin Ibn Xaldun rahbar o'zining yetakchilik faoliyati davomida hukumronga aylanib boradi, ya'ni uning rahbarligi ostidagilarni o'z irodasiga bo'ysindirishga harakati boshlanadi. Shuning uchun jamiyatda ularning ta'sir kuchi hajmi yuqori darajada bo'ladi va ular tobelarga nisbatan erkinlikka ko'proq egalik qiladilar. Egalik tushunchasini u mulk atamasi bilan ham yoritishga harakat qiladi. Mulk aynan hukumronlik bilan birga ifodalanganligi uchun egalik, boshqaruv kabi jarayonlarda kukumdorning qo'l ostida uning to'planishiga sabab sifatida xizmat qiladi.

U erkinlikni aql yordami orqali amalga oshirish kerakligi haqida mulohazalarini bildirib o'tadi. Demak, u erkinlik fenomenini ochib berish uchun alohida harakatni amalga oshirmagan. Uning falsafiy muammolar orasidan boshqa turdagi masalalarga kuchli e'tibor qaratgan, erkinlik esa diqqat markazlaridan ozroq chetda bo'lgan. Ammo bu sabab orqali erkinlik haqida umuman fikr yuritmagan degan xulosaga olib kelmasligi darkor.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Брамбо Р.С. Философы Древней Греции. – М.: Центрполиграф, 2002. – С. 183.
2. Глушкина Л.М. «Проблемы кризиса полиса», Античная Греция: проблемы развития полиса. – М., 1983. – II. – С. 29.
3. Гуторович О.В. Проблема свободы и ее решение в античной философии // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. ISSN 1997-292X. – № 7 (57): в 2-х ч. Ч. I. – Грамота, 2015. – С. 35-38.
4. Кессиди Ф.Х. Сократ. – М.: Мысль, 1976. – 198 с.
5. Ксенофонт. Воспоминания о Сократе. – М.: Наука, 1993. – II.
6. Нерсесянц В.С. Сократ. – М.: ИНФРА-М-НОРМА, 1996. – 312 с.
7. Прохоров К. Тайна предопределения [Электронный ресурс]. URL: <http://www.arminiantheology.wordpress.com/2010/08/24/tp/> (дата обращения: 25.03.2015).
8. Rakhimdjanova D.S. Comparative Analysis of the Interpretation of the Phenomenon of Transformational Freedom in Antiquity with Its Modern Approach // International Journal of Social Science Research and Review. - Volume 6, Issue 1. ISSN: 2700-2497. <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v6i1.921>. - Germany, Duisburg, 2023. - P. 457-466.
9. Rakhimdjanova D.S. Conversion of the Phenomenon of Freedom in the Ancient Philosophy // International Journal of Arts, Humanities and Social Studies. - Volume 3, Issue 6, ISSN (Online): 2582-3647. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5717668>. - Nov-Dec 2021. - P. 17-21.
10. Rakhimdjanova D.S. The concept of the idea of freedom in ancient and medieval philosophy // PSYCHOLOGY AND EDUCATION JOURNAL - Volume 58, № 1. ISSN: 00333077. <https://doi.org/10.17762/pae.v58i1.1562>. - 1195 Stroud Court Westerville, OH 43081, 2021-01-29. - P. 4553-4563.

11. Raximdjanova D.S. Erkinlik tushunchasini transformatsion xususiyatini ikki davr o'rtasidagi differentsiatsiyasini sotsiologik so'rovnoma orqali tahlili. - International scientific journal of Biruni. ISSN (E) 2181-2993. - Volume 2, Issue 02. - Tashkent, 2023. – Pg. 33-46.
12. Raximdjanova D.S. Suqrot ta'limotida erkinlik fenomenining aks etishi // Imom Buxoriy saboqlari. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. - №2. - Samarqand, Iyul 2021. - B. 127-130.
13. Frede M. A Free Will. Origins of the Notion in Ancient Thought. – London, 2011.
14. Polenz M. Freedom in Greek Life and Thought. The History of an Ideal. – Dordrecht, 1966. – P. 3.